

SO'FI OLLOYOR HIKOYATLARIDA IJTIMOY ADOLAT VA SAXOVAT G'OYALARI. (ABDULLOH IBN MUBORAK KABI SHAXSLAR HAYOTI MISOLIDA)

Rustamova Nigora O'roz qizi

JDPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 614.24-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20085610>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan mutasavvif shoir So'fi Olloyorning "Sabot-ul ojizin" asaridagi ijtimoiy adolat va saxovat g'oyalari tadqiq etiladi. Asardagi hikoyatlar, xususan, Abdulloh ibn Muborak kabi tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'liq lavhalar orqali insoniy fazilatlarining jamiyat barqarorligidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallifning islomiy qadriyatlar va tasavvufiy qarashlar asosida saxovatni nafaqat moddiy yordam, balki ruhiy yuksalish va nafsni jilovlash vositasi sifatida talqin etishi yoritib berilgan. Maqolada keltirilgan xulosalar bugungi kunda yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va jamiyatda o'zaro birdamlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: So'fi Olloyor, "Sabot-ul ojizin", ijtimoiy adolat, saxovat, Abdulloh ibn Muborak, tasavvuf, komil inson, ma'naviy tarbiya, didaktika.

Аннотация.

В данной статье исследуются идеи социальной справедливости и щедрости в произведении «Саботул ожизин» выдающегося поэта-суфия Софи Оллоёра, оставившего неизгладимый след в духовной жизни Центральной Азии. Через анализ притч, в частности, эпизодов, связанных с жизнью таких исторических личностей, как Абдуллах ибн Мубарак, раскрывается роль человеческих добродетелей в обеспечении стабильности общества. Освещается трактовка автором щедрости не только как материальной помощи, но и как средства духовного возвышения и обуздания нафса (эго) на основе исламских ценностей и суфийских воззрений. Выводы, представленные в статье, имеют важное значение для формирования духовности современной молодёжи и укрепления взаимопонимания в обществе.

Ключевые слова: Софи Оллоёр, «Саботул ожизин», социальная справедливость, щедрость, Абдуллах ибн Мубарак, суфизм, совершенный человек, духовное воспитание, дидактика.

Abstract.

This article explores the ideas of social justice and generosity in "Sabot-ul Ojizin," a work by the prominent Sufi poet Sofi Olloyor, who left an indelible mark on the spiritual life of Central Asia. Through the analysis of narratives within the work, particularly episodes related to the lives of historical figures such as Abdullah ibn Mubarak, the role of human virtues in maintaining societal stability is examined. The article highlights the author's interpretation of generosity—not merely as material aid, but as a means of spiritual elevation and self-discipline (taming the nafs) based on Islamic values and Sufi perspectives. The conclusions drawn in this study are of significant importance for shaping the spirituality of today's youth and strengthening social cohesion.

Keywords: Sofi Olloyor, "Sabot-ul ojizin", social justice, generosity, Abdullah ibn Mubarak, Sufism, the perfect human (al-insan al-kamil), spiritual education, didactics.

Kirish:

Shunday ulamolar borki, ularning nomlari aytilishi bilanoq, aytgan hikmatli soʻzi yoki soʻzi aytilishi bilanoq nomlari jaranglaydigandek tuyuladi. Shu maʼnoda Soʻfi Ollohyor deganda avomu xos barcha zavq bilan

“Aqida bilmagan shaytona eldir
Agar ming yil amal deb qilsa yeldir”

Degan baytlarini yodga olishlari deyarli odatiy holga aylangan. Ha, Soʻfi Olloyor bobomiz dinimiz ravnaqi yoʻlida fidokorona mehnat qilib, qimmatli asarlari bilan moturidiya taʼlimotining Movarounnahr va undan boshqa oʻlkalarga keng tarqalishiga xizmat qilgan zotlardan biridir. Soʻfi Olloyor bobomiz koʻplab ilmlar boʻyicha yetuk olim hamda fors tilida ham, turkiy tilda ham mahorat bilan ijod etgan adiblardan hisoblanadi. Asarlarida bayon qilingan maʼlumotlarga koʻra bu zot Shayx Habibulloh, Soʻfi Navroʻz Buxoriy va Xoʻja Moʻmin singari ustozlardan taʼlim olgan. Soʻfi Olloyor bobomizning ilm darajasi juda yuqori boʻlgani yozgan asarlaridan ham bilinib turadi.

“Sabot ul-ojizin” asarini oʻqir ekanmiz, sof islomiy eʼtiqod, komil inson axloqi, ilohiy muhabbat, yoshlar tarbiyasi kabi mavzularga duch kelamiz. Unda Allohning maʼrifati, tavhidi, sifatlari, iymon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, Paygʻambar shifoati, umrning foniyli haqida xabar beradi. Asar muqaddimasida qayd qilinishicha, muallifning muxlis va doʻstu yaqinlari turkiy tilda kitob yozishini iltimos qiladi:

Bitilsa turkiy til birla aqiyda,
Koʻngullar boʻlsa andin oramiyda.
Tamalluq qildilar chun bir necha yor,
Qalam tortay Xudo boʻlsin madadkor.

Bunga javoban fors tilida yozilgan “Maslak ul-muttaqin” asarini bir muncha qisqartirib, “Sabot ul-ojizin” deb ataydi:

Aqiyda soʻzlaridin qildim isbot,
Anga qoʻydum Sabot ul-ojizin ot.¹

Muallif asarni yaratishda ikkita asosiy manbadan foydalangan. Birinchi manba: Qurʼoni Karimdir. Ikkinchi manba: oʻzigacha boʻlgan buyuk allolamalar: Sulaymon Boqirgʻoniy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy asarlarining taʼsiridir. Asar din-aqid boʻyicha diniy koʻrsatma beradi, shuning bilan birga adabiy buyuk xazina hamdir. Quyidagi misralarni oʻqiganingizda haqiqiy inson qanday boʻlishi kerakligini anglagandek boʻlasiz:

¹“Sabot ul-ojizin” Choʻlpon(1991) 5-10-betlar
Ochiqqoʻllik, kushoda yuzli boʻlgʻil,
Muruvvatlik, muloyim soʻzli boʻlgʻil.
Musulmon oʻgʻliga yaxshi qiliq qil.
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil.

Maqolaning muhim nuqtalaridan yana biri shundaki, Soʻfi Olloyorning asarlarida axloqiy tarbiya bilan birga ilm-maʼrifat masalalari ham ustuvor mavzulardan biri ekanini koʻrish mumkin. U ilmga intilish, kitob mutolaasi, ustoz oldida xoksor va ehtiromli boʻlish, ilmga xizmat qilishni ham xuddi diniy farz kabi qadrlaydi. Bunda u Haq taolaga yetishish yoʻlida nafaqat zikr va samoʻ, balki aqliy-maʼrifiy kamolot ham muhim rol oʻynashini koʻrsatadi. Zero, Allohga yaqinlashish uchun inson maʼrifat bilan qalbni ziynatlab, hayotda ilmni toʻgʻri qoʻllashi zarurligini uqtiradi. Shu bois Soʻfi Olloyorning asarlari xalq orasida chindan ham “pandnoma”

yoki “hikmatnoma” tusini olgan, ular orqali ayni paytda aqliy va ma’naviy tarbiya bir paytning o’zida amalga oshirilgan.

So’fi Olloyor "Sabotul-ojizin"ning "Saxiyalar va baxillar bayoni" hamda "Riyoziyat va nafsni o’ldirish" boblarida ijtimoiy adolatni boylikni to’g’ri taqsimlashda ko’radi. Adib asarda mashhur muhaddis va zohid Abdulloh ibn Muborak hayotini ideal namuna qilib ko’rsatadi. Ibn Muborakning haj safari yo’lida bir beva ayolning mushkulini ko’rib, barcha mablag’ini unga berishi va "Hajimiz mana shu kambag’alning uyida bo’ldi" degan ma’nodagi xulosasi saxovatning eng yuksak cho’qqisidir. So’fi Olloyor bu orqali "Insonni e’zozlash — Ka’bani tavof qilishdan afzal" degan falsafani ilgari suradi.

Ki bordi hajga Abdulloh Muborak,
Erur erdi aning niyati muborak.

Ushbu buyuk zot hayoti misolida So’fi Olloyor ijtimoiy adolat va shaxsiy kamolotning bir necha muhim qirralarini ochib beradi. Adib insonning moddiy olam vositalariga (chelak va arqon timsolida) haddan tashqari bog’lanib qolishini ma’naviy erkinlikka to’siq deb biladi. Ijtimoiy adolat faqat moddiy boylik bilan emas, balki qalbning boyligi — tavakkul bilan o’lchanadi. Hikoyatda Ibn Muborak tanbehdan so’ng jismoniy tashnaligini unutadi. Bu — insoniy himmatning yuksakligidir. Ya’ni, haqiqiy saxovat va adolat sohibi bo’lish uchun inson avvalo o’z nafsini (jismoniy ehtiyojlarini) ikkinchi darajaga tushira olishi kerak.

Umuman olganda, So’fi Olloyorning “Sabotul-ojizin” asari shunchaki tasavvufiy qo’llanma emas, balki jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy muvozanatini saqlashga xizmat qiluvchi axloqiy kodeksdir. Muallif ijtimoiy adolatni boylikning miqdorida emas, balki uning adolatli taqsimlanishi va nafs jilovi orqali erishiladigan ruhiy erkinlikda ko’radi. Birinchidan, Abdulloh ibn Muborak hayoti bilan bog’liq “kiyik va quduq” hikoyati orqali muallif muhim bir haqiqatni isbotlaydi: haqiqiy saxovat — moddiy vositalarga (chelak va arqonga) bog’lanib qolish emas, balki Yaratganga bo’lgan cheksiz ishonch va bandalariga bo’lgan begaraz xizmatdir. Bu ijtimoiy adolatning ma’naviy poydevoridir. Ikkinchidan, So’fi Olloyor saxovatni inson qalbini baxillik va xudbinlik illatlaridan tozalovchi yagona vosita deb biladi. Uning talqinida boyning saxovati — jamiyat oldidagi qarzi, kambag’alning qanoati esa — adolatning bir ko’rinishidir. Adib o’zining “ojizona” iqrorlari orqali o’quvchini nafs ustidan g’alaba qozonishga, bu esa o’z navbatida jamiyatda o’zaro hamjihatlik muhitini yaratishga undaydi. Uchinchidan, asar nomi — “Sabotul-ojizin” (Ojizlarning saboti) zamirida ham katta ijtimoiy ma’no yotadi. Bu — murakkab hayotiy sinovlarda, ijtimoiy tengsizliklar qarshisida insoniy qiyofani yo’qotmaslik, imon va adolat yo’lida sobit turish demakdir. Shunday qilib, So’fi Olloyor ilgari surgan saxovat va adolat g’oyalari bugungi kunning global ma’naviy inqirozlari davrida ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Ular yosh avlod qalbida nafaqat diniy, balki umuminsoniy qadriyatlarni — fidoiylik, saxovatpeshalik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda beqiyos manba bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ziyozuz portali. So’fi Olloyor merosi va "Sabotul-ojizin" asari tahlili. [Elektron resurs]. URL: <https://ziyouz.uz> (Murojaat sanasi: 07.05.2024).
2. Haqqul I. O’zbek tasavvuf she’riyati. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991. – 160 b.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: "O’zbekiston", 2009. – 448 b.

4. So‘fi Olloyor. Sabotul-ujizin. (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: R. Zohid). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2014. – 128 b.
5. So‘fi Olloyor. Sabotul-ujiziyn. (Nasriy bayoni bilan tayyorlovchi: S. Rafiddinov). – Toshkent: "Cho‘lpon", 1991.